

O'ZBEK TILIDAGI BA'ZI IBORALARNING FRAZEOLOGIK TASNIFI

G. Safarova¹*Annotatsiya:*

Ushbu maqolada frazeologiya, frazeologik birlik va iboralar tasnifini kengroq yoritib berishga harakat qiligan. Shuningdek so'zning leksik ma'nosi va gramatik ma'nosiga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Frazeologik ma'no, leksima, morfema, affikslar, va maqollar.

doi: <https://doi.org/10.2024/wg6kb436>

Har bir tilning so'z boyligi, lug'at boyligi bo'lgani kabi o'zbek tilining ham o'z lug'at boyligi mavjud. Quyida bir nechta frazeologik namunalar keltirilgan va ularning frazeologik ma'nolari bilan tanishamiz. Dastlab, frazeologiya atamasiga va frazeologik ma'no nima ekanligiga to'xtaladigan bo'sak, "frazeologiya" yunoncha ikki so'zdan olingan: fraza- "ifoda, nutq figurasi" va logos- "ta'lim" degan ma'no anglatadi.[6;b.4] Frazeologiya tilning frazeologik tizimini hozirgi holati va rivojlanish tarixini shuningdek tilda barqaror qotib qolgan iboralar mohiyatini o'rganadigan tilshunoslikning muhim bo'limidir. Tilshunoslikda so'zning frazeologik birligi, deganda nima anglashiladi, degan savolga shuni aytish mumkinki, tilda ham shakl ham ma'no mavjud bo'lib, tilning ifoda maqsadini tasniflaydi.[1;b.4] Tilda shakl deb odatda tilning materiyasi-tovush nazarda tutiladi. Buni tilning ifoda plani deb ataladi. Tovush yozuvda harf bilan ko'rsatiladi. Shu asosda talaffuz shakli va yozuv shakli farq qilinadi. Yolg'iz shaklning o'zi hali til birligi degani emas. Shuningdek, til birligi bo'lishi uchun ma'lum shaklga ma'lum bir ma'no birlashtirilgan bo'lishi lozim. Bunda ma'no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma'noni biror shakl nutqning o'zida (nutq bosqichida) kashf etmaydi, balki biror ma'no til shaklida (til bosqichida) birlashtirilgan bo'ladi. Nutq esa shuni qalqitib beradi. Nutqimizdagi ayrim so'zlarning ma'nosi obrazli tasavvurlar oqibatida ikkinchi planga o'tib, birikmadan yaxlitligicha yangi bir ma'no anglashiladi. Shunday ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. [1;b.5]

Bundan tashqari ma'lum shaklga ma'lum bir ma'noning birlashtirilishi affikslarga xos. Masalan, boradi so'zi tarkibidagi -di affiksiga "III shaxs" ma'nosi -a affiksiga "hozirgi kelasi zamon" ma'nosi birlashtirilgan. Bunday affikslarning ma'nosiga grammatik ma'no deyiladi. Shu so'z tarkibidagi bor- qismidan esa umuman boshqa tub ma'no anglashiladi. Bu qism "makondagi yaqin nuqtadan uzoqdagi nuqtaga harakatlanish yo'nalish" ma'nosini anglatadi. Biror predmetning harakat holatini yoki shunga mansub belgi xususiyatini nomlovchi ma'noga "leksik ma'no" deyiladi. Leksik ma'noni anglatuvchi birlikka "leksima" deyiladi. Grammatik ma'noni ifodalovchi birlikka "morfema" deyiladi. So'z ayni vaqtda ham leksik ham grammatik ma'noga ega bo'ladi. Demak so'z ma'nosi odatda leksema va morfemadan tuziladi.

Xususan, ibora yirik til birligi bo'lib, kamidam ikkita mustaqil so'z (leksemadan) turkumidan tarkib topadi. Shunga ko'ra iboraning ifoda plani deb so'zlar (leksemalar), shular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli, iboralarda go'yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzulish sodir

¹ Safarova Gulxayo Sodiqjon qizi, Samarqand viloyati Oqdaryo tumani 11-umumta'lim maktabining ingliz tili fani o'qituvchisi

bo'ladi. Xususiy (qismlarga xos) ma'nolar umumiy (iboradan anglashiladigan) ma'noni tog'ridan tog'ri izohlab turmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog'lanish shartlilik kashf etadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bittadan ortiq so'z yaxlitligicha ma'lum bir obraz asosida ko'chirish yo'li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi va ma'lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ko'chma ma'noga frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, til tekkizmoq iborasi "sha'niga nomunosib, nohaq gap aytmoq" ma'nosini anglatadi. Bu ma'no tog'ridan-tog'ri ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosidan kelib chiqmaydi. Masalan, ovqatning mazasini bilish uchun tilumni tegizsam tuzi yo'q ekan. Bu gapda erkin birikma ishlatilgan. Iboraga misol keltirsak, "Kechagi majlisda menga ham til tekkizibdi "gapi tarkibida yuqoridagi erkin birikma emas, balki ibora qatnashmoqda. Chunki bu gapda til va tekkizmoq so'zlaridan emas, balki til tekkizmoq iborasidan foydalanilgan. Shuningdek, frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o'ziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek frazeologik birliklar alohida yondoshishni va o'rganishni talab qiladi.

Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo, leksikasining, frazeologik qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi.[3;b.4] Bunga misol tariqasida o'zbek xalqining maqol matallaridan namunalar ko'rishimiz mumkin. Masalan, "yetti o'lchab bir kes" maqolini olaylik, bu yerda haqiqatda yeti o'lchab bir kesish emas, biror so'z aytishdan oldin yoki qaror qabul qilishdan oldin qayta-qayta o'ylab xulosa qilish kerakligi nazarda tutilgan. Shu kabi ko'plab maqol matallardagi fe'l so'z turkumidagi buyruq shaklida qo'llanib, tinglovchiga nisbatan buyurish, iltims qilish, pand-nasihah qilish, tilak istak bildirish ma'nolarini anglatadi. Masalan, "yerdan topsang ham sanab ol", "xayr qilsang butun qil", "yomg'ir kuni ot tanlama, hayit kuni qiz tanlama" va hokaza. Bunday xalq og'zaki ijodining go'zal namunalaridan yuzlab keltirishimiz mumkin va bu noyob durdonalar tilimizning frazeologik qatlamida muhim ahamyat kasb etadi. Modomiki, iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birlik tashkil qilar ekan, fe'l iboralarning ichki sintaktik qurilishi ya'ni birkmaga teng bo'ladi va fe'l quyidagicha tuslanadi; bosh egdim, bosh egding kabi. Agar iboraning ichki sintaktik qurilishi gapga teng bo'lsa, bunday fe'l iborada tuslana olmaydi, doim III shaxs formasida turadi. Iborada qatnashayotgan ega shuni talab qiladi. Masalan, ko'z tegdi iborasini tuslab bo'lmaydi.

Fe'l frazeologik birliklarning leksik tarkibida fe'l so'z komponentidan tashqari boshqa so'z turkumi ham qatnashadi. Bunda so'z-komponenti ot bilan ifodalanib, uning tarkibida egalik affiksi qatnashadi: ko'ngliga kelmoq, ko'ngli yorishdi kabi. Ot komponent tarkibida qatnashadigan egalik affiksini o'zgartirib ishlatish sifat bilan birga kelgan, va ravish bilan birga kelgan iboralari ham mavjud: masalan, ko'nglim bo'sh, ko'ngling bo'sh, oyog'ingni qo'linga olib, oyog'ini qo'lga olib va shu kabilar.[1;b.13]

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki, nutqimizdagi iboralarning frazeologik ma'nosi muhim ahamyat kasb etadi. Bundan tashqari ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita so'zdan ya'ni leksimadan tarkib topishini ko'rishimiz mumkin. Leksima va morfema tilning frazeologik birligini tashkil qiladi. So'zlarning o'z ma'nosidan ko'chma ma'noda qo'llanilishi ayniqsa xalq og'zaki ijodida xususan maqollarda o'z ifodasini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Rahmatullayev Sh. "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati". "O'qituvchi" nashriyoti _Toshkent 1978.-407b
 [2]. Rahmatullayev Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" –_Toshkent Universitet 2006. - 476b
 [3]. Sodiqova M. "Qisqacha o'zbekcha-ruscha maqol-matallar lug'ati" Toshkent "O'qituvchi" 1993

- [4]. Sylviane Granger and Fanny Meunier. "Phraseology An interdisciplinary perspective" John Benjamins publishing company.
- [5]. Tojaliyevich A. B (2002) "Raise the awareness of military personnel about combat and combat readiness".
- [6]. Safarov Sh. "Kognitiv tilshunoslik". Jizzax_Sangzor 2006-92b.